

KAMPANIYALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Qurbonova Sevinch Tolib qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Moliya” fakulteti talabasi

E-mail: QurbonovaSevinch64@gmail.com

Ilmiy rahbar: Halekeeva Zoya Pirniyazovna

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi dosent

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi kompaniyalarda moliyaviy boshqaruv tizimining nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyatini tahlil qilingan. Kompaniyalar moliyasining asosiy tarkibiy elementlari-xarajatlar, foyda, daromadlar, investitsiya va moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlari hisoblangan. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy barqaror rivojlanishni ta'minlash, likvidlikni saqlash hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda samarali moliyaviy rejalashtirish va nazorat tizimining o'rni asoslab berilgan. Bundan tashqari, moliyaviy risklarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish kompaniyaning rivojlanishi uchun muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan izohlangan.

Kalit so'zlar: kompaniya moliyasi, moliyaviy boshqaruv, foyda, xarajat, moliyaviy, resurslar, daromad.

Annotation. This thesis analyses the theoretical foundations and practical significance of the financial management in companies. It highlights the main structural elements of company finance-revenues, expenses, profit, investments, and mechanisms for managing financial planning and control systems in ensuring financial planning and control systems in ensuring financial stability, maintaining liquidity and competitiveness is substantiated. Furthermore, it is scientifically explained that reducing financial risks and the rational use of resources are important factors in company development.

Keywords: company finance, financial management, profit, expenses, financial resources, revenue.

Kirish

Kompaniyalar faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlash, daromad va xarajatlarni boshqarishga qaratilgan tizimdir. Har bir kompaniya o'z faoliyatini yuritish jarayonida moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi albatta. Moliyaviy boshqaruvning to'g'ri barpo etilishi kompaniyalarning barqaror ishlashini ta'minlaydi. Agar kompaniyalarda xarajatlar va daromad o'rtasida muvozanat mavjud bo'lmasa, ular moliyaviy mashaqqatlarga duch kelishi mumkin. Shu bois moliyaviy maqsadlashtirish va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy boshqaruvning maqsadi mikroiqtisodiy muvozanatda, byudjet


profitsitida, kompaniyalar qarzlarning kamayishida namoyon bo'ladigan moliyaviy barqarorlik va moliyaviy mustaqillikni ta'minalashdan iboratdir. Shunga mos ravishda uning asosiy metodologik prinsiplari quydagilardan iborat:

- Pirovard maqsadga bog'liq holat;
- Xo'jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy muvozanatlilikgi;
- Iqtisodiy qonunlardan foydalanish ;
- Real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi sharoitlarni hisobga olish.

Moliyaviy boshqaruvning aniq metodlari va shakllari ko'plab qismlardan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan, moliyaviy rejalashtirish, bashoratlashtirish(prognozlashtirish), moliyaviy tartibga solish, dasturlashtirish, moliyaviy nazorat, moliyaviy qonunlarni qabul qilish va moliyaviy resurslarni jalb qilishning metodik tizimlaridir. Bu kabi tizimlar har bir kuchli moliyaviy jihatdan yuksalishga ega bo'lgan kompaniyalar poydevorlari hisoblanib bunday tizimlarga ega bo'lgan kompaniyalardan moliyaviy to'g'ri boshqarish strategiyasini olib borish juda ham oson. Har bir kompaniyalarda bu kabi dastaklarning mavjudligi ular oldiga qo'yilgan maqsadlarni bajarish imkonini beradi va kompaniyalarning kelajagini mustahkam qiluchi eng asosiy omillar desak mubolag'a bo'lmaydi. Moliyaviy boshqaruvning daromad va foydaga ta'siri albatta katta chunki kompaniyalarning xarajatlari kamayadi, sof foyda esa ortadi, resurslar samarali foidalaniadi va foidali investetsiyalar tanlash boshlanadi.

Moliyavoy boshqaruv tizimlarini ko'plab qismlarga ajratish mumkin(1-jadval).



Ma'lum bir natijaga erishish uchun obyektga ta'sir etishning maqsadli uslublari va yo'llari yig'indisi bu moliyaviy boshqarishdir. Boshqarish, insonlarning ongli ravishdagi maqsadga yo'naltirilgan yoki ko'zlangan faoliyati sifatida, jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. Kampaniyalarda pul mablag'lari yitarli bo'lmagan holatlarda moliyaviy oqilmning samaradorligi kamayadi va boshqaruv tizimida resurslarni doiraviy aylanishi va daromadlarning olinishida uzilishlarning paydo bo'lishiga, moliyaviy - iqtisodiy faoliyatda keskin ravishda yo'qotmalarning bo'lishiga olib keladi.

Xulosa

Korxonalarining moliyaviy holatini aniqlash uchun likvidlilik, aylanma aktivlarning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ma'lum bir aniq sanada va istiqbolda korxonaning to'lov majburiyatlari va uning moliyaviy imkoniyatlari o'lchamini balanslashtirishning asosiy metodi moliyaviy oqimlar byudjetidir (balansidir). Moliyaviy oqimlarning miqdoriy va sifat tavsifnomalari orqali korxonaning faoliyati ifodalanadi. Kampaniyalarda moliyaviy boshqaruvni samarali tashkil etish ularning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish kampaniya daromadini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yilda chop ettirilgan, Samariddin Elmirzayevning "Korporativ moliya" kitobi.
2. <https://www.scribd.com/document/813590193/moliyaviy-boshqaruv> .
3. A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov 'moliyaviy va boshqaruv hisobi' o'quv qo'llanma. Toshkent "IQTISO-MOLIYA" 2013-yil.
4. Jo'rayev Toshbolta To'xtaboyevich o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 28-iyundagi 434-sonli buyrug'ga asosan nashr etildi, "Fan va Texnologiya" nashriyoti, 2017.